

## BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA FE'L SO'Z TURKUMINING O'RGANILISHI

**Qutlimuratova Dinora Ravshanbek qizi**

*UrDU 3-bosqich talabasi*

**Kalit so'zlar:** *ona tili va o'qish savodxonligi, dars, fe'l, harakat, o'rgatish.*

Boshlang'ich sinfda olingen bilimlar keying bosqich uchun poydevor vazifasini o'taydi. Shunday ekan, boshlang'ich sinf darslariga yuqori talablar qo'yiladi. Ta'llimning asosiy maqsadi barkamol shaxsni tarbiyalash, o'quvchilarning o'z fikrini mustaqil bayon qilishga, ijodiy tafakkurini rivojlantirish, o'gzaki va yozma nutqini shakllantirishdir. Buning uchun jahon standartlariga mos keladigan, milliy g'oyani o'z ichiga singdirgan darslik yaratish lozim edi. 2020-yil O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga binoan Ona tili va o'qish savodxonligi fani ta'lim jarayoniga tatbiq etildi. Bu fan boshlang'ich sinf o'quvchilarini shaxs sifatida fikrlashga, o'zgalar fikrini angashga, nutqni tinglab tushunish, o'qish va yozish amallari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallab borishni ko'zda tutadi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarini tashkil etishda nazariyadan ko'ra ko'proq amaliyat e'tibor berish kuchaygan. Buni darsliklarda ko'rishimiz mumkin. Darslarda "Fe'l" mavzusini o'rganishdagi asosiy vazifalar fe'l haqida dastlabki tushunchani shakllantirish, o'quvchilarning o'gzaki va yozma nutqida fe'llardan to'g'ri, o'rinli va aniq foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, ularning lug'atini yangi fe'llar bilan boyitish, imloviy qoidalarni o'rganishdan iboratdir.

Fe'l so'z turkumini o'rgatishning dastlabki bosqichi 1-sinf savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Bu davrda harakat bildirgan so'zlarga diqqat qaratiladi, ya`ni shaxs va narsalarning harakat bildirishi. O'quvchilar "Alifbe" darsligidagi matnlarni o'qish, undagi rasmlarga qarab gap, matn tuzish bilan o'rgatiladi. Yana dars jarayonida rasmga mos harakatni bildirgan so'zlarni topishi, qanday so'roqqa javob berishiga oid mashqlar o'tkaziladi. Masalan, "Kun tartibi" mavzusida rasmlarga qarab gaplar tuzish sharti berilagan, bunda o'quvchilar fe'llardan foydalanishga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, "Uy hayvonlari" bo'limida hayvonlarga tegishligi harakatlarni gaplarda ifodalash topshiriqlari berilgan: *Jo'jalar nima qiladi? (chip-chipplaydi), tovuqlar yerni nima qiladi? (titkilaydi), sigir nima qiladi? (ma'raydi)...*

2-sinfda harakat bildirgan so'zlarning leksik ma`nosi bilan grammatik ma`nosi (harakat bildirishi) mos keladigan (*nima qilyapti?*) o'qiyapti, yuguryapti, (*nima qildi?*) o'ynadi, sakradi, *nima qiladi? (uxlaydi, yeydi)* kabi misollardan foydalaniladi. Fe'l so'z turkumini o'rganishda o'quvchilarning o'zi bajargan harakatlarni aytishi so'rab, ularning javobini(harakat bildirgan so'zlarni) so'roqlari bilan doskaga yozib suhbat o'tkazish bilan tushuntiriladi. Darslikda "Robot ixtiro qilaman" bo'limida robotlaarning qanday harakatlarni bajarishini yozish(qutqaradi,...), yo'ldagi harakat va holat bilan bog'liq so'zlarni yozish, bo'sh o'rinnarga berilgan so'zlardan mosini topib qo'yish,

fe`lning qoidasi(atamasiz) berilgan. Svetaforning qizil chirog'i yondi(nima qildi?) kabi.

3—sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligi IV bo`limda harakatning bajarilganlik yoki bajarilmaganligini farqlash, berilgan audiomatr tarkibidan so'zlarga so'roq berish orqali harakatni ifodalovchi so'zlarni toppish, faoliyat-jaryon fe`llarining yasalishi, ularni qo'llash bilan bog'liq mashqlar keltirilgan. Dasturga ko'ra, 3-sinfda bo'lislari va bo'lishsiz fe`llar o'rganiladi. Mavzuni suhbat asosida tushuntirish qulay. Fe'llarni ikki ustunga bo'lib yozish ham samarali.

4-sinfda fe'lning shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishi, gapdagi vazifasi, nutqda fe'ardan foydalanish, qo'shma fe'llar haqidagi bilim, ko'nikmalar beriladi. Bunda berilgan gaplarni uch zamonga qo'yish, ularga zamonga mos savollar berish orqali o'rgatiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun
2. "Umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi" Toshkent-2022
3. Ona tili o'qitish metodikasi. K.Qosimova va boshqalar. Toshkent. "Noshir" 2009
4. 1-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi. Darslik. I.Asimova va boshqalar. Toshkent-2021. Yangi nashr
5. 2-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi. Darslik. I.Asimova va boshqalar. Toshkent-2021. Yangi nashr
6. Lex.uz